



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 17-22 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING STRATEGIK AHAMIYATI



**Bozorova Jasmina Yusuf qizi**

Qarshi davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Turizm yo'nalishi talabasi

**Ilmiy rahbar: Bozorov Elyor Boboqulovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekiston iqtisodiyotida turizm sohasining rivojlanishi qanchalik muhim ekanligini ochib beradi. Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyoti ko'p tarmoqli bo'lib, turli xil tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Ularning har birini o'z vazifasi va maqsadi bor. Shu sohalar ichidan bugungi kunda respublikamizda eng rivojlanib borayotgan va shu bilan bir qatorda mo'may daromad keltiradigan soha turizm sohasi hisoblanadi. Turizmning O'zbekistondagi iqtisodiy o'sishga, ish o'rinlari yaratishga va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishga bo'lgan ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turizm sektorining mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlashdagi roli va istiqbollari, bundan tashqari, sohani rivojlantirish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Turizmning ijtimoiy va madaniy jihatlari ham ko'rib chiqilib, uning mahalliy aholi farovonligini oshirishga qo'shgan hissasi taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy turizm infrastrukturasi, strategik, rekonstruksiya, multiplikativ.

**Аннотация:** Эта статья раскрывает важность развития туристической отрасли в экономике Узбекистана. Как известно, экономика Узбекистана является многосекторной и включает в себя различные отрасли, каждая из которых имеет свои задачи и цели. Среди этих секторов туризм на сегодняшний день является одной из наиболее быстро развивающихся и одновременно прибыльных отраслей страны. В статье рассматривается влияние туризма на экономический рост, создание рабочих мест и привлечение иностранных инвестиций в Узбекистан. Также анализируется роль туристической отрасли в укреплении позиции страны в глобальной экономической системе, ее перспективы и меры, которые необходимо предпринять для дальнейшего развития этого сектора. Рассматриваются социальные и культурные аспекты туризма, подчеркивается его вклад в повышение благосостояния местного населения.

**Ключевые слова:** современная туристическая инфраструктура, стратегический, реконструкция, мультипликативный.

**Annotation:** This article reveals the importance of the development of the tourism sector in Uzbekistan's economy. As is well known, the economy of Uzbekistan is multi-sectoral, encompassing various industries, each with its own tasks and objectives. Among these sectors, tourism is currently one of the fastest-growing and, at the same time, one of the most profitable industries in the country. The article discusses the impact of tourism

on economic growth, job creation, and attracting foreign investments in Uzbekistan. It also examines the role of the tourism sector in strengthening the country's position in the global economic system, its prospects, and the measures that need to be taken for the further development of this sector. The social and cultural aspects of tourism are also analyzed, highlighting its contribution to improving the well-being of the local population.

**Keywords:** modern tourism infrastructure, strategic, reconstruction, multiplicative.

## Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning strategik ahamiyati mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun muhim faktor hisoblanadi. Bundan tashqari, turizm sektorining rivoji, raqamli texnologiyalarni va innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlaydi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan, qadimiy tarixga ega bo'lgan va ko'plab diqqatga sazovor joylarga ega mamlakatdir. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda joylashgan tarixiy obidalar, shuningdek, Amudaryo va Sirdaryo kabi daryolar, Chimgan va Beldersoy tog'lari, yirik cho'llar va boshqa tabiiy go'zalliklar O'zbekistonni turizm uchun jozibador qiladi. Bundan tashqari, O'zbekistonda o'ziga xos an'anaviy madaniyat, milliy taomlar, qo'shiqlar, raqslar va san'at turlari mavjud, bu ham turistlar uchun qiziqarli. Turizm sohasi xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvozanatlashtirib turuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Xalqlarning etnik turlari, ularning urf-odatlarini va an'analarini haqida bevosita xabardor bo'lish, bu xalqqa bo'lgan hurmatni oshirishiga xizmat qiladi. Bu bilan dunyo xalqlari o'rtasidagi o'zaro hurmat oshib, ular o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi [1].

## Tadqiqotlar metodologiyasi

Bundan tashqari, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi turizm sohasi bilan ham bog'liq ekanligi rivojlangan mamlakatlar tajribasida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Shuning uchun ham bozor munosabatlari shakllanayotgan va erkin xo'jalik yuritishga o'tayotgan mamlakatlarda avallari unchalik ahamiyat berilmagan turizmga, endilikda katta e'tibor bilan qaralmoqda. Hozirda O'zbekistonda zamonaviy turizm infrastrukturasi rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi". Shunday ekan, O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish ham iqtisodiy ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Turizm sohasining zamonaviy iqtisodiyotda, yangi ishchi o'rinlarini kengaytirish va kichik biznesni rivojlantirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Turizmning global rivojlanishi dunyo mamlakatlarini yaqinlashtirib, ularning o'zaro munosabatlarni faollashtirishda eng ishonchli va eng mustahkam tizimdir. Turizm rivojlanishi deyarli barcha sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatib mamlakat iqtisodiyotining dinamik tarzda o'sishiga olib keladi. Shuningdek, sohaga kiritilayotgan sarmoya qisqa vaqt ichida o'zini oqlashi, turistik kompaniyalar imkoniyatlari kengayishi hamda yuqori foyda olishi mumkinligi sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar miqdorini oshirmoqda. Dunyoda rivojlanib borayotgan ko'pgina davlatlar turizmning rivojlanishi uchun katta

e'tibor qaratmoqdalar. Negaki, turizm dunyo tamaddumining bosh gultoji bo'lib, hozirgi kunda sayohat insoniyat maqsadlarining asosini tashkil qilib kelmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi**

Turizm eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Mutaxasislarning fikriga qaraganda, XXI asrning eng daromadli sohasiga aylanadi. Hozir u jahonda avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyingi ya'ni, uchinchi o'rinni egallab turibdi. Turizmning bunday tez rivojlanishiga yana bir muhim sabab va omil sifatida, soha yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini va quvvatni ko'p sarf qiladigan texnologiyani talab qilmasligidir. Turizm transport, oziq-ovqat, mehmonxona, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qurilish va boshqa xizmat turlarini ham rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakt tashqi qiyofasini zamonaviylashtirishga, mehmonxona va restoran industriyasini rivojlantirishga hamda transport-kommunikatsiya tizimlari kabi tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, ko'plab tadbirkorlar yangi-yangi mehmonxonalarni qurmoqdalar, eskilarini esa rekonstruksiya qilib ta'mirlamoqdalar, ular ham jahon standartlariga moslashtirilmoqda. Bunga yaqqol misol qilib, Samarqand shahrida o'nlab shaxsiy mehmonxonalarni misol keltirish mumkin. Chunki mehmonxona xizmatlarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, mehmonxonachilik ishini tashkil qilishda bir qancha talablar, ya'ni xodimlarning tayyorgarligi, ma'lumoti, malakasi, yoshi, sog'lig'i, chet tillarini bilishi va tashqi ko'rinishiga ham ahamiyat beriladi. Bugungi kunda O'zbekistonda ayrim ovqatlantirish muassasalari yuqori darajada xizmat ko'rsatish usullaridan foydalangan holda faoliyat olib borsada, ba'zilarida esa xizmat ko'rsatish darajasi talabga javob bermaydi. Ularga xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish talab etiladi. Maqsad esa turizm sohasini rivojlantirib katta foyda olish. Bundan tashqari, turizmning rivojlanishida bank va boshqa moliyaviy tashkilotlar muhim o'rin tutadi. Turistlar sayohat qilayotganlarida turli xil moliyaviy xizmat turlaridan foydalanadilar. Turistlarga xizmat ko'rsatish tizimi qanchalik takomillashtirilsa, kelgusida turizmning yanada taraqqiy etishiga bevosita o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, axborot xizmati ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekistonga sayohat maqsadida kelayotgan turistlar o'zi boradigan joy haqida, o'zi beradigan hududning qonun-qoidalari, urf-odat va marosimlari, bayramlari, mehmondo'stligi haqida ma'lumotlarga, o'sha joyning xaritasi, transport magistrallari sxemasiga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun hozirgi davrda turizm infratuzilmasi zamonaviy kompyuter xizmatiga ham bevosita bog'liq bo'lib, tezkor axborot va so'zlashuv, yangiliklardan xabardorlik hozirgi davr turizmining muhim talabidir. Zamonaviy elektron vositalar, internet tarmoqlarida turli turistik xizmatlar, turistik markazlar haqidagi ma'lumotlar joylashgan millionlab saytlar mavjud bo'lib, turistlar internet orqali sayohat va turistik agentliklarni tanlash, tur sayohatning chiptalari, xizmatlar uchun to'lovlarni oldindan to'lash kabi imkoniyatlar yaratilgan [2].

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Shu o'rinda aytib o'tishim joizki, Shahrisabz tumanidagi Miraki

shaharchasida turizm sohasi rivoji uchun keng qamrovli ishlar amalga oshirildi ya'ni turistlar o'zlarini yanada qulayroq his qilishlari uchun bir qancha imkoniyatlar mavjud. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Yurtimizda boy madaniy-ma'naviy merosi turli-tuman arxeologik obyektlari, qulay tabiiy iqlim sharoiti hududimizda har qanday landshaftlarni ko'rishimiz mumkin. Islom dunyosida ma'lum va mashhur buyuk allomalarning maqbaralari, qadamjolari ko'p [4].

Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'siri nafaqat valyuta tushumi, yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadriyatlar saqlanishining bosh omilidir. Lekin afsuslanarli tomoni shundaki, mamlakatimiz turizm salohiyati yuqori bo'la turib undan uzoq yillar davomida bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanilmadi. Prezidentimizning so'nggi yillarda turizm sohasining rivoji uchun turli qonunlar, farmonlar chiqarganliklari sohaga qaratilgan yuksak e'tiborning yorqin dalilidir. Ushbu hujjatlar orqali sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish, turizm salohiyatini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Hozirgi zamonaviy davrda turizmning bir qancha turlari mavjud: rekratsion turizm, biznes turizm, ekskursiyaviy turizm, ekstremal turizm, madaniy va ma'rifiy turizm, VIP turizm ya'ni qimmatli dam olish maskanlariga tashrif buyurish, ekoturizm, etnik turizm, agroturizm va boshqa shu kabi turlari mavjud. Shuningdek, har bir shunga o'xshash turizm turlarini rivojlantirishga harakat qilinmoqda va amalda tatbiq etilmoqda. Respublika bo'yicha jami 550 ta sayyohlik kompaniyasi turoperatorlari faoliyat yuritmoqda. Mintaqamizdagi tarixiy obyektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yo'nalishi bo'yicha sayyohlarga xizmat ko'rsatilmoqda. Bu yo'nalishlarning 65 tasi tarixiy-madaniy meros obyektlari, 30 tasi tabiiy rekreatsion, 15 tasi sog'lomlashtirish turizm elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishdir. Hozirda yurtimizda 50000 dan ortiq o'ringa ega bo'lgan 500 dan ortiq mehmonxona, motel, va kempinglarda sayyohlarga xalqaro standartlar bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda. Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz iqtisodiy hayotida turizm sanoatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini egallayotganligidan dalolatdir. Xalqaro turizmni yanada rivojlantirishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlik va tinchlik ham muhim o'rin tutadi. Lekin xalqaro turizm taraqqiyoti darajasini yuqori bosqichga olib chiqishda hali ko'p islohotlarni amalga oshirish, kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlarni belgilash va ularni jadallik bilan hayotga tatbiq etish lozim bo'ladi. O'zbekistonda so'nggi yillarda ajoyib qurilish inshootlari, bir-biridan chiroyli madaniy dam olish maskanlari bundan tashqari, bir qarashda ko'zga tashlanadigan ziyoratgohlar qurib tugatilib, turistlar foydalanishlari uchun topshirildi. Keyingi yillarda respublikamizda o'zbek milliy kurashi, tennis, og'ir atletika va boshqa sport turlari bo'yicha jahon miqyosida chempionatlar o'tkazildi. Bu tadbirlar esa ko'pgina xorijiy mamlakatlardan turistlar kelishiga olib keldi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda bu omillar ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston madaniy meroslarga boy hudud. Turizm umumiy iqtisodiy o'sishga kam rivojlangan hududlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Tog' va qishloq joylarida turistik markazlarning tashkil qilinishi shu joylarning

o'zlashtirilishiga aholi turmush sharoitining qandayligiga bog'liq. Turizm rivojining kelajagini aniqlash uchun avvalo moddiy-texnika bazasi, turistik resurslar ko'lami mazkur turistik mahsulotga bo'lgan talabni chuqur o'rganish lozim. Hozirda chekka hududlardagi madaniy meroslar ham o'rganilib, yon-atroflari rekonstruksiya qilinmoqda. Bu esa mahalliy aholi hayotiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ijobiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- daromadning oshishi, mahalliy aholini yashash darajasini yaxshilanishi;
- ish o'rinlarining yaratilishi- bu esa mahalliy aholini bandligini ta'minlaydi;
- urbanizatsiyalash, ijtimoiy-madaniy jarayonlarining tezlashishi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlariga va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga ichki talabning oshishi;
- xalq og'zaki ijodiyoti, an'analari, qadriyatlari va rusumlarinig jonlanishi;
- tabiiy komplekslarning jonlanishi;
- infratuzilma, madaniyat tashkilotlarining rivojlanishi;
- mahalliy madaniy hayotining jonlanishi;
- mintaqa jozibadorligining oshishi;
- mahalliy madaniy meros yodgorliklarining tiklanishi va muhofazasi [3];

#### **Xulosa va takliflar**

Shuning uchun ham davlat ushbu sohaga alohida e'tibor berib, aholi uchun ma'lum imtiyozlar ham belgilab qo'ygan. Odamlar bu imkoniyatlardan faqatgina turist bo'lganliklarda foydalana oladilar. Imtiyozlar turistlarning bojxona postlaridan o'tishda, soliq to'lashda, chetga chiqishda pasportiga ruxsat berishlarida, havo va temir yo'l transportlariga chiptalar olishda, ularni rasmiylashtirishda namoyon bo'ladi. Yuqorida aytganimdek, turizmning mahalliy aholi uchun katta foydasi bo'lib, ular ish bilan ta'minlanadi. Shu o'rinda aytib o'tishim kerakki, 2023-yilda turizm tarmog'i jahon YaIMdagi ulushi 9,1 foiz ulushini tashkil etib, 9,9 trln dollarni tashkil etadi. Shuningdek, 27,4 mln ishchi kuchi uchun ish o'rinlari kengaytirilib, tarmoqda hozirgi kunda dunyo bo'ylab 330 mln kishi ishlaydi. Bundan tashqari, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladilar va ularning turli an'ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyatiga ega bo'ladilar, mehmon kutishning jozibador an'analarini tiklash bilan birga mehmondorchilik odoblarini takomillashtirib boradilar. Oxir oqibatda mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham mutassil o'sib boradi [5].

Turizm rivojlanishidagi hozirgi zamon tendentsiyalari uning ham jahon iqtisodiyotidagi ham alohida mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Turizm aholining o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil sohasiga aylanib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarning xilma-xilligi tufayli nafaqat turistik korxonalar balki boshqa soha korxonalar ham qatnashib xalq xo'jaligi kompleksi rivojigaa multiplikativ ta'sir qiladigan omillardan biri sifatida turizm namoyon bo'ladi. Bundan tashqari turizm insonlarning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lib, insonlarga fan-texnika taraqqiyoti jadal rivoji, mehnat intensivligi natijasida vujudga keladigan his-hayajon va psixologik salbiy ta'sirlarini kamaytirishda sezilarli ko'mak beradi. Keyingi yillarda olib borilgan sohaviy islohotlar va ularning amaldagi natijalari orqali shuni ta'kidlash joizki, mamlakatning

bugungi turizm salohiyati, uning keying yillardagi istiqbollari natijasida turizm sohasi orqali turli xil sohalarni rivojlantirishga erisha olamiz.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi, aholini turmush kechirish sharoitlarini yaxshilanishida, xalqaro maydonga chiqishi va unda munosib o'rin egallashda barcha sohalar bilan bir qatorda turizm sohasini ham o'rni salmoqlidir. Hozirda kishilar orasida turizmni keng targ'ib qilish maqsadida yurtimiz telekanallarida O'zbekiston turizm salohiyatini, turli xil qadamjolarini, turistik maskanlarni, markazlari, yurtimizning g'aroyib, afsonaviy joylarini kecha-yu kunduz targ'ib qiluvchi, sayohatga doir turli xil ko'rsatuvlar namoyish etilmoqda, turizmni rivojlantirish bo'yicha subsidiyalar va boshqa rag'batlantirish vositalari ham qo'llanilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Birjakov, MB (2000). Turizmga kirish. SPb.: Gerda savdo uyi nashriyoti.
2. Ostonov O'.YA. O'zbekiston hududida turizm infrastrukturasi salohiyati.
3. <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-> Yangiliklarni turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi
4. <https://www.uzbekistan.travel-> O'zbekistonning turistik joylari, madaniy va tarixiy merosi haqida ma'lumotlar va yangiliklar ko'rsatib o'tildi
5. <https://uzbektourism.uz/research/statistics>
6. Джумаева Г. Ж., Яхшикулова М. Т. (2023). АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ ОРГАНИЗАЦИИ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЯХ. Образовательные исследования в области универсальных наук, 2(3), 764-769.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

